

Buxoro viloyatida bajarilgan qurilish ishlari


2025- yil yanvar-may oylari uchun

- I. Jami bajarilgan qurilish ishlari
- II. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari
- III. Jami qurilish ishlari hajmining korxonalar turlari bo'yicha taqsimoti
- IV. Qurilish ishlari bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Jami bajarilgan qurilish ishlari

2025- yilning yanvar-may oylarida, Buxoro viloyatida jami 5 733,4 mlrd so'mlik qurilish ishlari bajarilib, 2024- yilning mos davriga nisbatan 107,6 % ni tashkil etdi.

Bajarilgan qurilish ishlari dinamikasi



	Hajm, mlrd so'm	O'sish sur'ati, %
Buxoro viloyati	5 733,4	107,6
Buxoro sh.	1 135,4	116,8
Kogon sh.	94,5	63,7
Olot tumani	237,8	101,5
Buxoro tumani	292,1	109,7
Vobkent tumani	124,2	106,9
G'ijduvon tumani	321,6	126,0
Kogon tumani	275,3	102,8
Qorako'l tumani	193,1	56,9
Qorovulbozor tumani	221,4	162,3
Peshku tumani	269,7	110,5
Romitan tumani	384,2	118,7
Jondor tumani	263,2	112,0
Shofirkon tumani	275,7	115,1

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Qurilish ishlari hajmi \(oylik\)](#)

[Qurilish ishlari hajmi \(yillik\)](#)

II. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari


2025- yilning yanvar-may oylarida Buxoro viloyatida bajarilgan qurilish ishlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi quyidagicha:

- binolar va inshootlar qurish yo'nalishi 62,3 % ulushni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 89,0 % ni tashkil etdi;

- fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 26,5 % ulushni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 196,6 % ni tashkil etdi;

- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 11,2 % ulushni va 2024-yilning mos davriga nisbatan 117,7 % ni tashkil etdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari o'sish sur'ati va hajmi



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha korxonalar turlari kesimida qurilish ishlari

	Bino va inshootlar qurilishi	Fuqarolik obyektlari qurilishi	Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari
Yirik qurilish tashkilotlari hajmi, mlrd so'm	187,3	356,2	198,3
o'sish sur'ati, %	62,2	173,3	135,5
Kichik korxonalar va mikrofirmalar hajmi, mlrd so'm	1 241,8	1 165,2	441,7
o'sish sur'ati, %	76,2	2,1 m.	111,1
Norasmiy sektor hajmi, mlrd so'm	2 142,9		
o'sish sur'ati, %	102,9		

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Bino va inshootlar qurilishi hajmi \(oylik\)](#)

[Bino va inshootlar qurilishi hajmi \(yillik\)](#)


[Fuqarolik obyektlari qurilishi hajmi \(oylik\)](#)

[Fuqarolik obyektlari qurilishi hajmi \(yillik\)](#)

[Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi \(oylik\)](#)

[Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi \(yillik\)](#)

III. Jami qurilish ishlari hajmining korxonalar turlari bo'yicha taqsimoti va o'sish sur'ati




Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2025- yilning yanvar-may oyida bajarilgan qurilish ishlari hajmi 741,8 mlrd so'mni tashkil etdi. Ko'rib chiqilayotgan davrda qurilish ishlari hajmi 2024- yilning mos davriga nisbatan 113,6% ni va ularning umumiy hajmdagi ulushi 0,6% ga ko'payib, 12,9% ni tashkil etdi.

Shuningdek, kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 49,7% i to'g'ri kelib, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2024- yilning mos davriga nisbatan 109,8% ni tashkil etgan holda 2 848,7 mlrd so'm miqdorida qayd etildi.

Norasmiy sektorda qurilish ishlarining ulushi 37,4% ni yoki 2 142,9 mlrd so'mni tashkil etib, 2024- yilning mos davriga nisbatan 102,9% ni tashkil etdi.

Korxonalar turlari bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'atlari



**Hududlar kesimida korxonalar turlari
bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari**

	Hajm, mlrd so'm			O'sish sur'ati, % da		
	Yirik	Kichik va mikrofirma	Norasmiy sektor	Yirik	Kichik va mikrofirma	Norasmiy sektor
Buxoro viloyati	741,8	2848,7	2142,9	113,6	109,8	102,9
Buxoro sh.	163,8	771,4	200,2	231,3	113,2	91,0
Kogon sh.	15,0	52,4	27,1	37,8	63,7	102,9
Olot tumani	14,1	168,0	55,7	28,7	126,8	105,8
Buxoro tumani	9,0	198,0	85,1	72,4	114,4	105,3
Vobkent tumani	8,3	66,6	49,3	3,0 m.	98,8	107,1
G'ijduvon tumani	38,9	179,1	103,6	10,9 m.	112,7	111,6
Kogon tumani	31,5	174,1	69,7	118,3	98,6	108,1
Qorako'l tumani	33,4	107,8	51,9	16,8	111,6	118,3
Qorovulbozor tumani	180,6	31,7	9,1	185,9	101,3	113,3
Peshku tumani	8,4	178,6	82,7	2,6 m.	110,3	104,6
Romitan tumani	95,3	195,3	93,6	157,9	114,5	101,0
Jondor tumani	11,7	189,8	61,7	3,7 m.	108,7	107,8
Shofirkon tumani	21,9	194,0	59,8	4,3 m.	110,4	101,8

Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori o'sish sur'atlari G'ijduvon tumanida (2024- yilning mos davriga nisbatan 10,9 m.), Shofirkon tumani (4,3 m.) va Jondor tumanida (3,7 m.) qayd etildi.

Ko'rib chiqilayotgan davrda kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori o'sish sur'atlari Olot tumanida (2024- yilning mos davriga nisbatan 126,8%), Buxoro shaxrida (113,2%) va G'ijduvon tumanida (112,7%) va kuzatildi.

IV. Qurilish ishlari uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Qurilish ishlari – bino va inshootlarni barpo etish, qayta tiklash, kengaytirish, kapital va joriy ta'mirlash ishlari majmuasi sifatida qurilish ishlab chiqarishining natijasidir.

Qurilish ishlari qiymatiga qurilish uchastkalarining o'zlashtirish ishlari rejasini tuzish va tayyorlash, suv ta'minoti, issiqlik, kanalizatsiya, poydevorlarni o'rnatish, devorlarni ko'tarish, bino konstruksiyalarini montaj qilishning sanitar-texnika ishlari, boshqa pudrat ishlari (ishga tushirish va sozlash, gidroyuvish ishlari, yer qatlamini ochish, texnik-madaniy ishlar va boshqalar) kiritiladi.

Qurilish ishlarining statistik hisobi hisobot davrining amaldagi narxlarida, qo'shilgan qiymat solig'ini qo'shmagan holda, to'lov muddatidan qat'i nazar, hisobot davrida haqiqatda bajarilgan hajm bo'yicha amalga oshiriladi.

Qurilish ishlari hajmi bo'yicha statistik ma'lumotlar quyidagilar asosida shakllantiriladi:

- a) qurilish faoliyatini olib boruvchi yuridik shaxslarning statistika hisobotlari (oylik, yillik);
- b) kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyatining choraklik tanlanma kuzatuv natijalari;

d) jismoniy shaxslar tomonidan yakka tartibdagi uy-joy va noturar-joy obyektlar qurilishi monitoringi bilan shug'ullanuvchi O'zbekiston Respublikasi Davlat kadastrlari palatasining hududiy boshqarmalari statistika hisobotlari;



- e) foydalanishga topshirilgan yakka tartibdagi uy-joylarni tanlama statistik kuzatuv ma'lumotlari;
f) yakka tartibdagi uy-joylarni xo'jalik usuli bilan ta'mirlash hajmini statistik baholash.

Metama'lumot uchun havola:

<https://stat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/1875/Qurilish-ishlari.pdf>

<https://stat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/1877/Aholi-ion-boshiga-qurilishishlari.pdf>

Tayyorlash uchun mas'ul:

Investitsiyalar va qurilish
statistikasi bo'limi

Ijrochi:

Sh. Xodjaev
65 223-81-99 (8020)

Manzil:
